



RASMIY HUJJAT

# Ommaviy ofertasi

Envast investitsiya platformasi

---

Ushbu Ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda — "Oferta") Envast platformasi orqali ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish tartibi, shartlari, huquq va majburiyatlarni belgilaydi.

---

KUCHGA KIRGAN SANA

01.05.2026

BO'LIMLAR

20

MANBA

[envast.uz/oferta](https://envast.uz/oferta)

# 1 Umumiy qoidalar

---

- 1.1. Ushbu Ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda — “Oferta”) Envast platformasi orqali ko‘rsatiladigan xizmatlardan foydalanish tartibi, shartlari, huquq va majburiyatlarni belgilaydi.
- 1.2. Oferta O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va amaldagi qonunchilikka muvofiq tuzilgan bo‘lib, ommaviy oferta hisoblanadi.
- 1.3. Platformada ro‘yxatdan o‘tish, shaxsiy kabinet ochish, investitsiya kiritish yoki platformaning har qanday funksiyasidan foydalanish foydalanuvchining ushbu Ofertani to‘liq va so‘zsiz qabul qilganligini (aksept qilganligini) anglatadi.
- 1.4. Foydalanuvchi ushbu Ofertani qabul qilgan paytdan boshlab uning barcha shartlariga rioya qilish majburiyatini oladi.
- 1.5. Platformadan foydalanish faqat ushbu Oferta shartlariga rozilik bildirgan shaxslarga ruxsat etiladi.
- 1.6. Platforma O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq faoliyat yuritadi.

## 2 Atamalar va ta’riflar

---

Ushbu Ofertada quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

**Platforma** — Envast axborot tizimi, veb-sayti, mobil interfeyslari va ular bilan bog‘liq xizmatlar majmui.

---

**Envast** — platforma operatori va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot.

---

**Foydalanuvchi** — platformadan foydalanayotgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

---

**Investor** — platforma orqali investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi foydalanuvchi.

---

**Loyiha** — platformada joylashtirilgan investitsiya obyekti yoki investitsiya taklifi.

---

**Investitsiya** — investor tomonidan loyiha doirasida kiritilgan mablag‘.

---

**Ulush** — investorning loyiha yoki investitsiya obyektidagi ishtirok ulushi.

---

**Dividend** — loyiha natijasida shakllangan foydadan investor ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanadigan mablag‘.

---

**Shaxsiy kabinet** — foydalanuvchining platformadagi individual hisob qaydnomasi.

### 3 Xizmatlar mazmuni

---

- 3.1. Platforma foydalanuvchilarga investitsiya loyihalari haqida axborot taqdim etadi.
- 3.2. Platforma loyihalarni ko‘rib chiqish, tahlil qilish va ularda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.
- 3.3. Platformada loyiha hujjatlari, moliyaviy ko‘rsatkichlar, investitsiya shartlari va boshqa ma’lumotlar joylashtirilishi mumkin.
- 3.4. Platforma investitsiya bozoriga oid yangiliklar, sharhlar, tahliliy materiallar va boshqa axborotlarni taqdim etishi mumkin.
- 3.5. Platformada joylashtirilgan ma’lumotlar investitsiya maslahati, moliyaviy tavsiya yoki daromad kafolati hisoblanmaydi.
- 3.6. Foydalanuvchi investitsiya qilish yoki qilmaslik haqidagi qarorni mustaqil ravishda qabul qiladi.

### 4 Ro‘yxatdan o‘tish va identifikatsiya

---

- 4.1. Platformadan to‘liq foydalanish uchun foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tishi shart.

- 4.2. Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tish jarayonida haqiqiy va dolzarb ma'lumotlarni taqdim etishi kerak.
- 4.3. Envast foydalanuvchini identifikatsiya qilish maqsadida qo'shimcha hujjatlar talab qilish huquqiga ega.
- 4.4. Noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumot taqdim etilgan taqdirda platforma akkauntini vaqtinchalik cheklashi yoki bekor qilishi mumkin.
- 4.5. Foydalanuvchi akkaunt xavfsizligi uchun mustaqil javobgar hisoblanadi.

## 5 Mijozni aniqlash (KYC — Know Your Customer) va Pul mablag'larini legallashtirishga qarshi kurashish (AML — Anti-Money Laundering) talablari

---

- 5.1. Platforma pul mablag'larini legallashtirishga (AML) va noqonuniy faoliyatdan olingan daromadlarni yashirish hamda boshqa noqonuniy moliyaviy operatsiyalarning oldini olish bo'yicha amaldagi qonunchilik talablariga rioya qiladi.
- 5.2. Platforma foydalanuvchidan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, manba ma'lumotlari va boshqa zarur hujjatlarni talab qilishi mumkin.
- 5.3. Shubhali operatsiyalar aniqlangan taqdirda platforma tranzaksiyalarni vaqtinchalik to'xtatish huquqiga ega.
- 5.4. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda ma'lumotlar vakolatli davlat organlariga taqdim etilishi mumkin.

## 6 Investitsiya kiritish tartibi

---

- 6.1. Investor platformada joylashtirilgan loyihalarni mustaqil ravishda o'rganadi va investitsiya kiritish to'g'risidagi qarorni mustaqil ravishda qabul qiladi.
- 6.2. Investitsiya miqdori, minimal investitsiya summasi, loyiha davomiyligi, kutilayotgan daromadlilik darajasi va boshqa shartlar har bir loyiha tavsifida alohida ko'rsatiladi.

- 6.3. Investitsiya mablag‘lari loyiha shartlariga muvofiq ravishda yo‘naltiriladi.
- 6.4. Investor investitsiya kiritish orqali loyiha bo‘yicha barcha risklarni tushunganligi va qabul qilganligini tasdiqlaydi.
- 6.5. Platforma investitsiya kiritish bo‘yicha yakuniy qaror uchun javobgar hisoblanmaydi.

## 7 Kommandit shirkat modeli

---

- 7.1. Platformada taqdim etiladigan loyihalar komandit shirkat qonunchilikda nazarda tutilgan sheriklik mexanizmlari asosida amalga oshirilishi mumkin.
- 7.2. Investor loyiha doirasida sheriklik ulushiga ega bo‘lishi mumkin.
- 7.3. Investorning huquqlari, majburiyatlari va ulush miqdori tegishli loyiha hujjatlarida belgilanadi.
- 7.4. Investor loyiha boshqaruvida bevosita ishtirok etmasligi mumkin.
- 7.5. Loyiha boshqaruvi vakolatli boshqaruvchi yoki loyiha operatori tomonidan amalga oshiriladi.

## 8 Dividendlar va foyda taqsimoti

---

- 8.1. Loyiha faoliyati natijasida olingan foyda loyiha shartlarida nazarda tutilgan tartibda taqsimlanishi mumkin.
- 8.2. Dividendlar investor ulushiga mutanosib ravishda hisoblanadi.
- 8.3. Platformada ko‘rsatilgan dividend prognozlari, daromadlilik ko‘rsatkichlari va hisob-kitoblar taxminiy xarakterga ega.
- 8.4. Dividendlar miqdori bozor sharoitlari, loyiha natijalari va boshqa omillarga bog‘liq ravishda o‘zgarishi mumkin.
- 8.5. Platforma dividendlarning muayyan miqdorini yoki to‘lanishini kafolatlamaydi.

8.6. O'tgan davrdagi daromadlilik kelgusidagi natijalarni kafolatlamaydi.

## 9 Investitsiya risklari

---

9.1. Investitsiya faoliyati tavakkalchilik bilan bog'liq.

9.2. Investor investitsiya qilingan mablag'ning bir qismini yoki to'liq qismini yo'qotish riski mavjudligini tushunadi va qabul qiladi.

9.3. Quyidagi risklar mavjud bo'lishi mumkin:

- bozor riski;
- likvidlik riski;
- qurilish riski;
- iqtisodiy risklar;
- inflyatsiya riski;
- huquqiy risklar;
- soliq risklari;
- valyuta risklari;
- texnik va operatsion risklar;
- boshqa turdagi risklar ham mavjud bo'lishi mumkin.

9.4. Platforma investitsiyalarning foyda keltirishini yoki investitsiya summasining qaytarilishini kafolatlamaydi.

## 10 To'lovlar va mablag'larni qaytarish

---

10.1. Investitsiya to'lovlari investorning ixtiyoriy qarori asosida amalga oshiriladi.

10.2. Mablag'larni qaytarish tartibi har bir loyiha shartlariga muvofiq belgilanadi.

10.3. Ayrim loyihalarda investitsiya muddati tugaguniga qadar mablag'larni qaytarish imkoniyati mavjud bo'lmashligi mumkin.

10.4. Platforma investitsiya mablag'larini muddatidan oldin qaytarishni kafolatlamaydi.

10.5. To'lovlar elektron shaklda qayd etiladi va hisobga olinadi.

## 11 Soliqlar

---

- 11.1. Investor o'zining investitsiya faoliyati natijasida yuzaga keladigan soliq majburiyatlari uchun mustaqil javobgar hisoblanadi.
- 11.2. Platforma amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda soliq agenti sifatida harakat qilishi mumkin.
- 11.3. Soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar investorning daromadiga ta'sir qilishi mumkin.

## 12 Elektron hujjatlar va elektron rozilik

---

- 12.1. Platformada elektron shaklda tuzilgan hujjatlar qog'oz shaklidagi hujjatlar bilan teng yuridik kuchga ega bo'lishi mumkin.
- 12.2. Foydalanuvchi platformada amalga oshirilgan elektron harakatlar o'zining xohish-irodasi asosida bajarilganligini tan oladi.
- 12.3. Elektron rozilik, elektron tasdiqlash va elektron hujjatlar qonunchilikda ruxsat etilgan hollarda yuridik ahamiyatga ega hisoblanadi.
- 12.4. Platformadagi barcha operatsiyalar elektron jurnal va texnik vositalar orqali qayd etilishi mumkin.

## 13 Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlar

---

- 13.1. Platformadan foydalanish jarayonida foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari amaldagi qonunchilik va Platformaning Maxfiylik siyosatiga muvofiq qayta ishlanadi.
- 13.2. Foydalanuvchi Platformada ro'yxatdan o'tish orqali o'zining shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, saqlash, qayta ishlash va foydalanishga rozilik bildiradi.
- 13.3. Platforma foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun zarur tashkiliy va texnik choralarni ko'radi.

- 13.4.** Platforma foydalanuvchi ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga oshkor qilmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan holatlar mustasno.
- 13.5.** Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun foydalanuvchining o'zi javobgar hisoblanadi.

## **14 Intellektual mulk huquqlari**

---

- 14.1.** Platformada joylashtirilgan barcha materiallar, jumladan matnlar, dizaynlar, logotiplar, grafik tasvirlar, dasturiy ta'minot elementlari va boshqa obyektlar intellektual mulk huquqi bilan himoyalangani.
- 14.2.** Mazkur materiallardan Platformaning yozma rozilgisiz foydalanish taqiqlanadi.
- 14.3.** Platforma materiallarini nusxalash, tarqatish, o'zgartirish, tijorat maqsadlarida foydalanish yoki uchinchi shaxslarga taqdim etish taqiqlanadi.
- 14.4.** Foydalanuvchi tomonidan ushbu bo'lim talablari buzilgan taqdirda Platforma qonunchilikda nazarda tutilgan choralarni ko'rish huquqiga ega.

## **15 Akkauntni cheklash va bloklash**

---

- 15.1.** Platforma quyidagi hollarda foydalanuvchi akkauntini vaqtinchalik cheklash yoki bloklash huquqiga ega:
- noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim etilganda;
  - qonunchilik talablari buzilganda;
  - fribgarlik yoki fribgarlikka urinish holatlari aniqlanganda;
  - uchinchi shaxslarning huquqlari buzilganda;
  - AML/KYC talablari bajarilmaganda;
  - Platforma xavfsizligiga tahdid yuzaga kelganda.
- 15.2.** Akkaunt bloklangan taqdirda Platforma foydalanuvchidan qo'shimcha ma'lumot yoki hujjatlar talab qilishi mumkin.

- 15.3. Akkauntni bloklash Platformaning qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarini cheklamaydi.

## 16 Javobgarlikni cheklash

---

- 16.1. Platforma investitsiya loyihalarining iqtisodiy natijalari uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 16.2. Platforma foydalanuvchining investitsiya qarorlari oqibatlarini uchun javobgar emas.
- 16.3. Platforma internet tarmog'i, aloqa operatorlari, banklar, to'lov tizimlari yoki uchinchi shaxslar faoliyatidagi uzilishlar uchun javobgar bo'lmaydi.
- 16.4. Platformada joylashtirilgan ma'lumotlardan foydalanish natijasida yuzaga kelgan zararlar uchun Platforma javobgar hisoblanmaydi.
- 16.5. Platforma vaqtinchi texnik ishlar olib borilishi munosabati bilan ayrim xizmatlarni cheklash huquqiga ega.

## 17 Fors-majior holatlari

---

- 17.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi fors-majior holatlari natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.
- 17.2. Fors-majior holatlariga quyidagilar kiradi:
- tabiiy ofatlar;
  - zilzila;
  - yong'in;
  - suv toshqini;
  - epidemiya yoki pandemiya;
  - harbiy harakatlar;
  - davlat organlarining cheklovchi qarorlari;
  - internet va telekommunikatsiya tizimlaridagi yirik nosozliklar;
  - tomonlarning nazoratidan tashqaridagi boshqa holatlar.
- 17.3. Fors-majior holatlari davomida majburiyatlarni bajarish muddati ushbu holatlar davom etgan muddatga uzaytiriladi.

## 18 Nizolarni hal etish tartibi

---

- 18.1. Tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar, avvalo, muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.
- 18.2. Foydalanuvchi e'tiroz yoki murojaatini Platformaning rasmiy aloqa vositalari orqali yuborishi mumkin.
- 18.3. Muzokaralar orqali hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq va/yoki vakolatli sudlarda ko'rib chiqiladi.

## 19 Ofertaga o'zgartirish kiritish

---

- 19.1. Ushbu Ommaviy oferta 01.05.2026 sanadan kuchga kirdi. Envast ushbu ofertaga istalgan vaqtda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega.
- 19.2. Yangilangan tahrir Platformada e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.
- 19.3. Foydalanuvchining Platformadan foydalanishda davom etishi yangi tahrirga rozilik bildirganligini anglatadi.

## 20 Yakuniy qoidalar

---

- 20.1. Platformadan foydalanish ushbu Ofertaning barcha shartlari qabul qilinganligini anglatadi.
- 20.2. Agar ushbu Ofertaning ayrim qoidalari haqiqiy emas deb topilsa, qolgan qoidalar o'z kuchini saqlab qoladi.
- 20.3. Ushbu Oferta elektron hujjat hisoblanadi va qog'oz shaklidagi hujjat bilan teng yuridik kuchga ega bo'lishi mumkin.
- 20.4. Foydalanuvchi ushbu Oferta bilan tanishganligini, uning mazmunini tushunganligini va barcha shartlariga rozilik bildirganligini tasdiqlaydi.